



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 30-avgust

441-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 27-avgustda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida” 2024-yil 23-avgustdagi PF–119-son Farmoni ijrosi haqida”gi 401-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-iyuldagi “Paxtachilik sohasi korxonalarining iqtisodiy-moliyaviy holatini yaxshilashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-103-son Farmoniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida” 2024-yil 23-avgustdagi PF–119-sonli Farmoni hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 27-avgustdagi 401-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosini tumanda ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 27-avgustdagi 401-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-avgustdagi PF–119-son Farmoni bilan:

Paxta hosilini sotib olish va sotish bo‘yicha yangi tizimning shaffofligini, to‘laqonli va adolatli ishlab ketishini hamda paxta xomashyosini yetishtiruvchilar manfaatdorligini ta‘minlash bo‘yicha respublika shtabining Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasining kredit resurslari hisobidan paxta-to‘qimachilik klasterlari hamda to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ygan korxonalariga fyuchers shartnomasi bo‘yicha ortiqcha yetishtirilgan paxta xomashyosining yig‘im-terimini kreditlash uchun 10 oy muddatga, 3 oylik imtiyozli davr va so‘nggi 7 oyda teng ulushlarda qaytarish sharti bilan paxta xomashyosi qiymatining 20 foizigacha, yillik 10 foizda (shundan bank marjasi 2 foiz) kredit ajratish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga ilovaga muvofiq qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Abdusalomov va tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari B.Muydinov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov